

HUDUDLARDA TABIIY RESURSLAR SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Xo'janova Gulshoda Otamurodovna
QarMII tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada hududiy resurs salohiyatidan foydalanishning nazariy asoslari, resurslarlar salohiyatidan samarali foydalanish bosqichlari va omillari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tabiiy resurs, iqtisodiy salohiyat, hududiy resurs salohiyati, resurs salohiyatidan samarali foydalanish.

Abstract

This article describes the theoretical basis of using regional resource potential, stages and factors of effective use of resource potential.

Keywords: effective use of natural resources, economic potential, territorial resource potential, resource potential.

Аннотация:

В данной статье описаны теоретические основы использования ресурсного потенциала региона, этапы и факторы эффективного использования ресурсного потенциала.

Ключевые слова: эффективное использование природных ресурсов, экономический потенциал, территориальный ресурсный потенциал, ресурсный потенциал.

Bugungi kunda tabiiy resurs, resurs salohiyatidan samarali foydalanish darajasini oshirish masalalari yuzasidan ko‘pgina iqtisodchi olimlarimiz ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishmoqda. Iqtisodiy salohiyat va hududiy sanoat korxonalarida resurs salohiyatidan foydalanish bo‘yicha mamlakatimizda va xorijda ko‘plab olimlar tadqiqot olib borganlar va bu masalani atroflichcha o‘rganganlar. Jumladan, professor Sh.Shodmanov va U.G‘afurovlarning ta’riflashlaricha: “jamiyatning ishlab chiqara bilish qobiliyati iqtisodiy salohiyat deb ataladi. Bu qobiliyat ishlab



chiqarish resurslarining miqdori va sifati bilan belgilanadi, yaratilgan mahsulotlar va xizmatlar miqdori bilan ifoda etiladi”¹.

Iqtisodchi olimlarimiz M.R.Rahimova va A.E.Ishmuxamedovlarning fikrlariga ko‘ra “resurs salohiyati har bir mamlakatning eng muhim boylik manbaidir. Undan olinayotgan mahsulotlar insonning turli ehtiyojini qondiradi. Resurslar yer ostidan qazib olingandan keyin mineral xomashyo ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Yer qaridan qazib olingen, iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan foydali qazilmalar mineral xomashyolar deyiladi”².

Rossiyalik iqtisodchi olim R.N.Nureyeva tabiiy resurs zahiralarini geologik, sanoat ahamiyatiga molik va ekspluatatsiya qilingan turlarini ajratadi: “Mineral resurslarga bo‘lgan talab vaqtga qarab o‘zgarib turadi va u jamiyatning rivojlanish darajasiga, ishlab chiqarish ehtiyojlariga, shuningdek texnika taraqqiyotiga va iqtisodiy imkoniyatiga bog‘liq bo‘ladi. Texnika bilan qurollanganlik darjasasi qancha yuqori bo‘lsa, resurslarga talab shuncha yuqori va tabiiy xom ashyolarning ko‘plab yangi turlari sanoat ishlab chiqarishga jalb etiladi”³.

Bizning fikrimizcha esa, tabiiy resurslar salohiyati, tabiatda insonlarga bevosita bog‘liq bo‘lmagan, ularning ishtirokisiz shakllangan, lekin yashashi va faoliyat kechirishi uchun zarur hayotiy ne’matlarning zahira manbalaridir.


Tabiiy resurslar salohiyatidan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish tabiatga faol ta’sir ko‘rsatish bilan birga ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning rivojlanishi davrida zamonaviy jamiyatning eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotlarga ko‘ra hudularning iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda, ularning resurs salohiyatini tasniflash lozim. Ushbu jarayonda resurslar salohiyatini uch yo‘nalishda ko‘rib chiqishimiz mumkin. (1-rasm):

¹ Sh. Shodmonov, U. G‘ofurov, Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik- T.: Fan va texnologiya 2010. 461-b

² Rahimova M. R., Ishmuxamedov A.E. Mintaqaviy iqtisodiyot. Darslik. T.: TDIU, 2010. 72-b.

³ Нуреева Р.Н. Национальная экономика. Учебник. Под общей редакцией М: Инфра- М, 2010. С. 26.



1-rasm. Hududlar iqtisodiy rivojlanishida resurs salohiyatini tasniflash.

1-rasmda tasvirlangan hududlarning resurs salohiyatini tasniflaganimizda quyidagilarni ko'rishimiz mumkin:

1. Hududiy jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, aholi soni va tuzilishi hamda hududning geosiyosiy mavqeい bo'yicha mehnat salohiyatini o'z ichiga oladi.
2. Ishlab chiqarish jihatidan tahlil qilganimizda, sanoat, agrar, ishlab chiqarish va infratuzilma, innovatsiyalar hamda boshqalarni qamrab oladi.
3. Hududning rivojlanishi jihatdan o'rganilganda, ijtimoiy-ma'naviy va intellektual salohiyatini ifodalaydi.

Insoniyat butun hayoti va olib borayotgan faoliyati davomida o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan tabiat unsurlarini quyidagi ikki asosiy guruhga bo'lishimiz mumkin. Birinchidan, moddiy ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etuvchi - tabiiy resurslar kiritiladi. Ikkinchidan esa, tabiatdagi qolgan barcha tabiiy sharoit elementlarini inobatga olinadi. Xususan, "tabiiy sharoit"ga tabiatning barcha elementlarini kiritganimizda, u inson hayoti va faoliyatini belgilab beruvchi, lekin ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydigan tabiat elementlari hisobga olinadi. Tabiiy resurslarni esa tabiiy sharoitning bir bo'lagi sifatida qarab, ularning majmuasini jamiyat taraqqiyotining tabiiy-moddiy omillari sifatida hisobga olamiz. Tabiiy resurslar- inson o'z hayot faoliyati uchun tabiatdan oladigan va kelajakda olishi mumkin bo'lgan barcha noz-ne'matlar ekanligini hisobga olsak, tabiat inson



**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st April, 2024

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

uchun yashash muhiti va resurslar manbai bo‘lib xizmat qiladi. “Atmosfera havosi, yer, suv, quyosh nuri, iqlim yer osti boyliklari, iqlim, o‘simgiliklar va hayvonot dunyosi – bularning barchasi tabiiy resurslardir”⁴.

“Sanoat korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish doimo muhim ahamiyat kasb etib, uni har tomonlama tahlil qilish va mavjud tabiiy resurs salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi”⁵.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, hududiy tabiiy resurslar salohiyatidan samarali foydalanish uch bosqichda amalga oshiriladi (1-jadval):

1-jadval Tabiiy resurslarlar salohiyatidan samarali foydalanish bosqichlari va omillari

Bosqichlar	Tavsifi	Ta’sir etuvchi omillar	
		Ichki	Tashqi
I bosqich	Hududiy resurs salohiyati shakllantiriladi, uning tarkibi va tashkil etuvchilarning miqdori aniqlanadi;	1.Texnologiyalar va jihozlar; 2.Ishchi xodimlar-ning malakasi; 3.Qo’llaniladigan xomashyo; 4.Xomashyo turi va sifati;	1.Ishlab chiqarish, bozor va texnologik infratuzilma; 2.Rivojlanish holati; 3.Hududiy sanoat siyosati; 4. Ishni tashkil etish talabchanlik va nazoratning ochiqligi;
II bosqich	Ishlab chiqarish jarayoniga resurslarni yo‘naltirish amalga oshiriladi	5.Ishlab chiqariladi-gan mahsulot turi va sifati; 7.Ixtisoslashuv;	5. O‘zaro hamkorlik va faoliyatlarni muvofiqlashtirish;
III bosqich	Ishlab chiqarish jarayonida resurslardan foydalanish jarayoni amalga oshiriladi.	8.Mustaqillik va mas’uliyat.	6.Qonuniylik.

Jadval ma’lumotlariga asosan, I bosqichda texnologiyalar va jihozlar, ishchi xodimlarning malakasi kabi ichki omillar ta’sirida uning tarkibi va tashkil etuvchilarning miqdori aniqlanadi;

⁴Xotamov, M.Sultanov, A.Yadgarov. Atrof - muhit va tabiiy resurslar iqtisodiyoti. “Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi”, 2021. 312 bet.

⁵Rustamov N.I. Tuxtaeva M.Sh. Sanoat korxonalarida hududiy resurs salohiyatidan samarali foydalanish yo‘llari “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020 yil 93-94-betlar.



II bosqichda ishlab chiqarish, bozor va texnologik infratuzilma, ishni tashkil etish, talabchanlik hamda nazaratning ochiqligi kabi tashqi omillar ta'sirida resurslar yo'naltiriladi.

III bosqichda esa o'zaro hamkorlik va faoliyatlarni muvofiqlashtirish hamda qonuniylik ta'siri asosida ishlab chiqarish jarayonida resurslardan foydalaniladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tabiiy resurslar salohiyatidan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish jamiyatning eng muhim muammolaridan biri bo'lib, hududlarning iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda, ularning resurs salohiyatini uch jihatdan tasniflash tavsiya etiladi. Tabiiy resurslarlardan samarali foydalanish esa uch bosqichda amalga oshirilib, unga ichki va tashqi omillar ta'sir ko'rsatishi ahamiyatli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 60-sod "O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmoni
2. Sh. Shodmonov, U. G'ofurov, Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik- T.: Fan va texnologiya 2010. 461-b
3. Rahimova M. R., Ishmuxamedov A.E. Mintaqaviy iqtisodiyot. Darslik. T.: TDIU, 2010. 72-b.
4. Нуреева Р.Н. Национальная экономика. Учебник. Под общей редакцией М: Инфра- М, 2010. С. 26.
5. Xotamov, M.Sultanov, A.Yadgarov. Atrof - muhit va tabiiy resurslar iqtisodiyoti. «Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi», 2021. 312 bet.
6. Rustamov N.I. Tuxtayeva M.Sh. Sanoat korxonalarida hududiy resurs salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020 yil 93-94-betlar.
7. Otamurodovna Xo'janova Gulshoda. "Tabiiy resurslarining sanoat tarmoqlaridagi o'rni." International Congress on Models and methods in modern investigations. 2022.
8. Хожанова, Г. О. (2023). Особенности использования природных ресурсов. Лучшие интеллектуальные исследования, 9 (2), 105-107.